

# Korxonalar va tashkilotlar

**(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

**2018 yil yanvar– avgust  
holatiga**

2018 yilning yanvar-avgust oyida Respublikada 38,1 mingtaga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,6 mingtaga ko'pdir.


Shuningdek, faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 29,0 % ga kamaygan hamda ularning soni 4,6 mingtani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 26,1mingta (9,1 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 312,7 mingtani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Toshkent shahrida (21,2 %), Toshkent (9,6%), Farg'ona (9,0 %) va Andijon (8,6 %) viloyatlarida kuzatilmoqda.



## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari), ming birlikda




## Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 sentabr holatiga)


|                          | Ro'yxatdan o'tgan |                   | Faoliyat ko'rsatayotgan |                   |
|--------------------------|-------------------|-------------------|-------------------------|-------------------|
|                          | ming birlik       | jamiga nisbatan % | ming birlik             | jamiga nisbatan % |
| <b>O'z. Respublikasi</b> | <b>327,4</b>      | <b>100,0</b>      | <b>312,7</b>            | <b>100,0</b>      |
| Q. Respublikasi          | 15,5              | 4,7               | 15,1                    | 4,8               |
| <i>viloyatlar:</i>       |                   |                   |                         |                   |
| Andijon                  | 28,2              | 8,6               | 26,8                    | 8,6               |
| Buxoro                   | 18,2              | 5,6               | 17,3                    | 5,5               |
| Jizzax                   | 14,4              | 4,4               | 13,6                    | 4,4               |
| Qashqadaryo              | 20,9              | 6,4               | 20,3                    | 6,5               |
| Navoiy                   | 10,9              | 3,3               | 10,5                    | 3,4               |
| Namangan                 | 22,1              | 6,7               | 21,1                    | 6,7               |
| Samarqand                | 24,8              | 7,6               | 23,4                    | 7,5               |
| Surxondaryo              | 16,0              | 4,9               | 15,5                    | 4,9               |
| Sirdaryo                 | 10,7              | 3,3               | 10,0                    | 3,2               |
| Toshkent                 | 33,9              | 10,3              | 30,1                    | 9,6               |
| Farg'ona                 | 28,5              | 8,7               | 28,1                    | 9,0               |
| Xorazm                   | 15,3              | 4,7               | 14,5                    | 4,6               |
| Toshkent sh.             | 68,0              | 20,8              | 66,4                    | 21,2              |

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,0 % savdoda, 17,3 % sanoatda, 8,8 % qurilishda, 7,5 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 6,0 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,1 % tashish va saqlash, 2,2 % axborot va aloqa, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 30,0 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,




### Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi




2018 yil yanvar-avgust holatiga 38132 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 24,8 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Toshkent shahrida (8388 ta), Toshkent (3744 ta), Farg'ona (3114 ta) va Samarqand viloyatlarida (3126 ta) tashkil etilgan. Eng kam Sirdaryo (1045 ta), Navoiy (1473 ta) hamda Xorazm (1544 ta) viloyatlarida tashkil etilgan.

### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (7882 ta), sanoatda (7416 ta), qurilishda (4389 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (4017 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (832 ta), axborot va aloqada (852 ta) hamda tashish va saqlashda (1313 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**




**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda**

|  | 2017 yil yanvar-avgust holatiga. | 2018 yil yanvar-avgust holatiga. |
|--|----------------------------------|----------------------------------|
| <b>Jami:</b>                                       | <b>30542</b>                     | <b>38132</b>                     |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi                 | 4111                             | 4017                             |
| Sanoat   | 7752                             | 7416                             |
| Qurilish   | 2842                             | 4389                             |
| Savdo  | 5854                             | 7882                             |
| Tashish va saqlash                                 | 1273                             | 1313                             |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar          | 2571                             | 2594                             |
| Axborot va aloqa                                   | 739                              | 852                              |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 613                              | 832                              |
| Boshqa turlari                                     | 4787                             | 8837                             |

## Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 sentabr holatiga 255,1 ming tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 72,0 mingta, oilaviy korxonalar – 14,2 mingta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 161,6 mingta, va boshqalar 7,4 mingtani tashkil etadi.



## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 sentabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 6708 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 1402 taga yoki 26,4 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 3636 tasi qo'shma korxonalar, 3072 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yillar davomida




### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Toshkent shahar 4275 ta (63,7 %), Toshkent viloyati 751 ta (11,2 %) va Samarqand viloyatlari 361 ta (5,4 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Xorazm viloyati 59 ta (0,9 %), Qashqadaryo viloyati 68 ta (1,0 %), Navoiy viloyati 83 ta (1,2 %) va Qoraqalpog'iston Respublikasi 99 ta (1,5 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 sentabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 2749 ta (41,0 %), savdoda 1418 ta (21,1 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 1147 ta (17,1 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 89 ta (1,3 %), axborot va aloqada 176 ta (2,6 %), tashish va saqlashda 196 ta (2,9 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 258 ta (3,8 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 282 ta (4,2 %) va qurilishda 393 ta (5,9 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da









2018 yilning yanvar-avgust oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalar soni 1396 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 912 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 262 ta, Turkiya Respublikasi – 228 ta, Xitoy Xalq Respublikasi-203 ta, Qozog'iston Respublikasi – 151 ta, va Koreya Respublikasi – 113 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yil davomida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, (yanvar-avgust holatiga) birlikda



Rossiya Federatsiyasi



Turkiya Respublikasi



Qozog'iston Respublikasi



Xitoy Xalq Respublikasi



Janubiy Koreya Respublikasi




Va boshqa davlatlar rezidentlari



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 433 ta, savdoda 375 ta, qurilishda 132 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 106 ta va boshqa faoliyat turlarida 186 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**



## Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 sentabr holatiga Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 253,2 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 sentabr holatiga qaraganda 9,5 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 57,2 mingtasi (22,6 %) Toshkent shahriga, 24,5 mingtasi (9,7 %) Toshkent, 22,3 mingtasi (8,8 %) Farg'ona hamda 22,1 mingtasi (8,7 %) Andijon viloyatlari hissalariga to'g'ri keladi.

### Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 253,2 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 68,2 mingtasi (26,9 %) – savdoda, 53,5 mingtasi (21,1 %) - sanoatda, 27,5 mingtasi (10,9 %) - qurilishda, 23,0 mingtasi (9,1 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 18,8 mingtasi (7,4 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 12,6 mingtasi (5,0 %) - tashish va saqlashda, 6,5 mingtasi (2,6 %) - axborot va aloqa sohasida, 5,0 mingtasi (2,0 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 38,1 mingtasi (15,0 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-avgust holatiga 33,5 mingdan oshiq kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 16,3 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Toshkent shahrida (7918 ta), Toshkent (3443 ta), Samarqand (2794 ta) va Farg'ona viloyatlarida (2624 ta) tashkil etilgan. Eng kam Sirdaryo (925 ta), Xorazm (1296 ta) hamda Navoiy (1262 ta) viloyatlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (7877 ta), sanoatda (7408 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (3995 ta) va qurilishda (4384 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (817 ta), axborot va aloqada (847 ta) hamda tashish va saqlashda (1309 ta) tashkil etilgan.

## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



## Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 sentabr holatiga 14838 tani tashkil etib, ulardan 14243 tasi yoki 96,0 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **27,0** % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

## Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 37,2 % yoki 5300 tasi sanoat, 21,5 % yoki 3058 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 16,5 % yoki 2350 tasi savdo, 11,3 % yoki 1610 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,2 % yoki 177 tasi qurilish, 1,1 % yoki 155 tasi axborot va aloqa, 1,1 % yoki 157 tasi tashish va saqlash, 1,1 % yoki 153 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 9,0 % yoki 1283 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



**Statistik registrlarni yuritish va tizimli xizmat ko'rsatish boshqarmasi**  
**Tel: 230-80-90, 230-80-92**